

## Rossiya delegatsiyasi tashrifi

Ayni kunlarda Rossiya Federatsiya Prezidenti Administratsiyasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari A.L.Ribakov boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizda mehmon bo'lib turibdi. Kuni kecha O'zbekiston Respublikkasi Fanlar akademiyasiga ushbu delegatsiyasi tarkibidan Rossiya Federatsiyasi fan va oliy ta'lif vazirligi Xalqaro hamkorlik departamenti vakillari I.N.Ganshin hamda N.S.Truxanovskaya tashrif buyurdi. Mehmonlarni FA prezidenti, akademik B.S.Yuldashev, bosh ilmiy kotib G'.A.Baxadirov, vitse-prezident S.Z.Mirzayev hamda Xalqaro aloqalar sektori boshlig'i A.M.Mahmudjanov kutib oldilar.

Uchrasuvda ikki davlat ilmiy hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Xususan, "Suffa" xalqaro radioastronomiya observatoriyasida hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada jadallashtirishga kelishib olindi.